

**OLIY TA'LIM TALABALARINING KASBIY IJTIMOIYLASHUV  
JARAYONINI TASHKIL ETISH**

**Daminova Nigora Kudratovna**

*Samarqand davlat chet tillar instituti*

*Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogikasi*

*kafedrası katta o'qituvchisi*

*daminovna533@gmail.com*

**Annotasiya:** *Maqolada oliy ta'lim talabalarining kasbiy ijtimoiylashuvini tashkil etish masalasi yoritilgan. Shuningdek, oliy ta'lim tashkilotlarida o'quv-tarbiya jarayonini o'quv-uslubiy jihatdan ta'minlashga qo'yiladigan talablar haqida ma'lumot berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *kasb, kasb tanlash, o'quv jarayoni, kasbiy ijtimoiylashuv, oliy o'quv tashkilotlari, DTS, mutaxassis, mutaxassislarni tayyorlash, kasbiy tayyorgarlik, sifat.*

Talabalarining kasbiy ijtimoiylashuvini boshqarish orqali oliy ta'lim tashkilotining o'quv jarayoni O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ko'rsatilganidek: "Oliy ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta'minlaydi. Oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlash oliy ta'lim tashkilotlarida amalga oshiriladi. Umumiy o'rta, o'rta maxsus, boshlang'ich professional ta'lim olgan shaxslar, shuningdek, ushbu Qonun kuchga kirguniga qadar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi olgan shaxslar oliy ma'lumot olish huquqiga ega" [1; 7-b].

Ushbu rasmiy hujjatlarning matniga asoslanib, talabani keyingi kasbiy faoliyatga tayyorlash uchun unga samarali ijtimoiy ta'sir ko'rsatish o'quv jarayonining maqsadi bo'ladi. Buning natijasida, ta'lim tashkilotidagi o'quv-tarbiyaviy jarayon shaklan va mazmunan talabaning eng samarali kasbiy ijtimoiylashuvi jarayonini ta'minlashga qaratiladi.

Kasbiy ijtimoiylashuvni tashkil etish mexanizmi – o'quv-tarbiyaviy jarayonning elementlarini tashkil etish va boshqarish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, tegishli bilim, ko'nikma va malakalarni o'zida qamrab oladi, chunki mutaxassis tayyorlashda bu elementlardan birortasining bo'lmasa, kasbiy ijtimoiylashuv jarayoni samarali kechmaydi. Ta'lim tashkilotini tugatgach, mutaxassis o'zining yo'nalishi bo'yicha talab darajasida ishlamasa, u kasbiy ijtimoiylashuv natijalaridan foydalana olmaydi, ya'ni martabasining ko'tarilishi, ish haqining oshirilishi, kasbiy takomillashish va shu kabilar.

“Ta’lim to’g’risida”gi Qonunning 34-moddasiga binoan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi davlat ta’lim standartlari, malaka talablari, oliy ta’lim, o‘rta maxsus ta’lim hamda professional ta’limning o‘quv rejalari va o‘quv dasturlari ishlab chiqilishini ta’minlaydi. Ushbu maqsadlar uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tayanch davlat oliy ta’lim va professional ta’lim muassasalarini belgilaydi [1; 18-b].

Kasbiy ta’limning mazmuni tegishli ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklarining Davlat ta’lim standartlariga asosan belgilanadi.

- kasbiy ta’lim – bu muayyan yo‘nalish bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash samaradorligini ta’minlashning asosiy vositasi bo‘lib hisoblanadi. Bu o‘qituvchilar va talabalar uchun o‘qitish natijalariga qo‘yiladigan ta’lim standartlari va zarur bo‘lgan vositalarni, shakllarni va usullarni tanlash erkinligiga bog‘liq;

- ta’lim tashkilotlarida mutaxassislar tayyorlash bo‘yicha o‘quv rejalari va o‘quv dasturlarini yaratish va ularga tuzatish kiritish;

- Davlat ta’lim standartlari asosida mutaxassis kadrlarni tayyorlashga ko‘maklashadigan o‘quv-uslubiy majmualarni innovatsion tarzda yaratish va modernizatsiyalash;

- ta’lim samaradorligini ta’minlovchi vositalar, shakllar va texnologiyalarni to‘g‘ri tanlash;

- ilm-fan, texnika va texnologiya yutuqlariga mos ravishda o‘quv jarayoni uchun texnik jihozlanishni takomillashtirish;

- o‘qituvchilar tarkibi nuqtai nazaridan ta’lim tashkilotini boshqarish jarayonini takomillashtirish;

- o‘quv jarayoni doirasida mutaxassislar tayyorlash sifatini monitoring qilish [2].

Oliy ta’lim tashkilotida o‘quv jarayonini oliy ta’lim Davlat ta’lim standartiga kiritilgan mutaxassisning ideal modeliga asosan ta’lim faoliyatini amalga oshirishga chaqiriladi. Mutaxassisning bu modeli – bitiruvchining ma’lum bir standarti; o‘quv jarayonida olingan bilim, shakllantirilgan ko‘nikmalar va orttirilgan malakalar majmui hisoblanadi.

Davlat ta’lim standartlarining talablari mutaxassis modelini – talaba tomonidan olingan kasbiy ijtimoiylashuv jarayonining yakuniy natijalari tashkil qiladi. Davlat ta’lim standartlari oliy ta’lim tashkilotining o‘quv jarayoni orqali talaba shaxsining kasbiy ijtimoiylashuviga ta’sir maqsadini tashkil qiladi, deb xulasa chiqarish mumkin. Aks holda, kasbiy ijtimoiylashuv jarayoni buziladi va bo‘shliqlar paydo bo‘ladi. Har bir ta’lim tashkiloti talabalar kasbiy ijtimoiylashuvini ta’minlashda ta’sir etishning qanday usullar va vositalarni mustaqil ravishda belgilaydi, bu esa ijtimoiy ta’sirning yuqori darajadagi samaradorligi ta’minlanishga ko‘maklashadi.

Ta'lim mazmunini tashkil etuvchi asosiy hujjatlar – bu o'quv rejalari, o'quv dasturlari, darslik va o'quv qo'llanmalardir. Bu hujjatlar professor-o'qituvchi va talabalar faoliyatining predmeti bo'lib, ular bilim hajmi va mazmunini shakllantirishda foydalaniladi.

Agar, oliy ta'lim tashkilotidagi o'quv-tarbiyaviy jarayon uslubiy va moddiy-texnik jihatdan ta'minlanmagan bo'lsa, ta'lim tashkilotining imkoniyatlariga minimal belgilangan talablarga rioya qilmasdan tashkil etilsa, samarali ijtimoiylashtiruvchi ta'sir ko'rsata olmaydi.

Bu holatlar oliy ta'lim Davlat ta'lim standartida tartibga solinadi. Unga asosan, oliy ta'lim tashkiloti mutaxassislarni tayyorlashni muayyan ta'lim dasturi asosida maxsus jihozlangan laboratoriyalarda, amaliy ishlarni o'tkazish uchun maxsus shroitlarda amalga oshiradi. Buning uchun oliy ta'lim tashkiloti fanlar bo'yicha o'quv va ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishni ta'minlaydigan moddiy-texnik ta'minotga ega bo'lishi kerak. Shuningdek, fanlar bo'yicha namunaviy o'quv dasturlari va mavjud sanitariya me'yorlariga javob bera oladigan shroitlarga ega bo'lishi lozim.

Oliy ta'lim tashkilotlarida o'quv-tarbiya jarayonini o'quv-uslubiy jihatdan ta'minlashga qo'yiladigan talablar quyidagicha:

- mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha mavjud ta'lim dasturini amalga oshirishda talaba muayyan yo'nalishning ixtisoslik fanlari bo'yicha laboratoriya ishlari va amaliy topshiriqlar, majburiy faoliyat komponenti sifatida o'zining shaxsiy kompyuterida berilgan amaliy topshiriqlarni mustaqil tarzda bajarishi kerak. Majburiy talab ham yuqori malakali mutaxassis tayyorlashni ta'minlaydigan zarur axborot bazasini yaratish va talabalarining turli tarmoq axborot manbalaridan, jumladan, internetdan foydalanishini ta'minlashdir;

- bitiruvchini tayyorlash bo'yicha asosiy o'quv dasturini amalga oshirish har bir talaba uchun asosiy o'quv dasturi fanlarining to'liq ro'yxatiga mos keladigan mazmunga muvofiq kutubxona fondlari va ma'lumotlar bazalaridan foydalanishi, o'quv-uslubiy qo'llanmalar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. Barcha fanlarni o'qitish uchun va barcha turdagi darslarni tashkil qilish uchun tavsiyalar, jumladan, seminarlar mashg'ulatlari, kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlar, malakaviy va pedagogik amaliyotlar, shuningdek, mashg'ulot jarayonida qo'llaniladigan ko'rgazmali qurollar, foydalaniladigan audio, video va multimedia shaklidagi materiallar ham shular jumlasiga kiradi [3].

Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan globallashtirish sharoitida talabalar kasbiy ijtimoiylashuvini tashkil etish modelining protsessual bloki oliy ta'lim talabalarining kasbiy ijtimoiylashuvi jarayonini tashkil etish uchun qo'llaniladigan eng samarali texnik va texnologik vositalar, pedagogik texnologiyalar, usullar, texnikalar majmuasini o'z ichiga oladi.



Oliy ta'lim tashkilotlarida talabalar kasbiy ijtimoiylashuvini tashkil etish modelining samarali bo'lib hisoblangan – baholash bloki biz tomonimizdan aniqlagan bir qancha mezonlarni o'z ichiga oladi. Bular: kognitiv mezonlar, hissiy-baholash mezonlari va xulq-atvor mezonlaridir. Sanab o'tilgan har bir mezon talabalar kasbiy ijtimoiylashuvini tashkil etish qay darajada, ya'ni yuqori darajada, o'rta darajada va past darajada ekanligini diagnostika qilish orqali aniqlash imkonini beruvchi mezon ko'rsatkichlari tizimiga ega bo'lib hisoblanadi.

Bo'lajak mutaxassislarning muvaffaqiyatli kasbiy ijtimoiylashuvini tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlar – bu oliy ta'lim tashkilotining o'quv-tarbiyaviy jarayonida bu jarayonni tashkil etishdir. Talabalarning kasbiy ijtimoiylashuvi shaxsiy ahamiyat kasb etadi hamda kasbiy ijtimoiylashuv oliy ta'lim tashkilotidagi muhim vazifalarini bajarishga yo'naltiriladi [4].

Agar professor-o'qituvchilar bo'lajak mutaxassislarning kasbiy ijtimoiylashuvini tashkil etishning asosiy tashkilotchisi sifatida shakllangan pedagogik va shaxsiy kompetensiyalarga ega bo'lsa, o'quv-tarbiyaviy faoliyatning globallashuv sharoitida jamiyatning qadriyatlarini va yutuqlaridan o'z faoliyatida foydalanishga alohida e'tibor qaratsa, talabalar ta'lim tashkilotlarida maxsus yo'naltirilgan faoliyatlarda va tadbirlarda ixtiyoriy ravishda ishtirok etishlari mumkin. Shuningdek, ta'lim tashkilotidagi o'quv-tarbiyaviy jarayonlarda va talabalarning bo'sh vaqtlarida talabalar kasbiy ijtimoiylashuvini tashkil etishda xorijiy mamlakatlar tajribasining yutuqlaridan foydalanilsa, mahalliy oliy ta'lim sharoitida uning xususiyatlari va an'alarini hisobga olgan holda foydalanish uchun maqbuldir.

#### Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. 2020-yil 23-sentabr.
2. Даминова Н.К. Замонавий оламда шахсинг ижтимоийлашуви //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – С. 274-278.
3. Begmatova Dilnoza Mukhtarovna, & Daminova Nigora Kudratovna. (2022). Professional socialization of youth in family education. *European Scholar Journal*, 3(3), 92-94.
4. Begmatova, D. M., Daminova, N. K., & Vaydulla, M. M. (2022). Improving the pedagogical content of professional socialization of youth and students in the context of globalization. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 01 (105), 756-759.